

**MAKTAB O'QUVCHILARNI BILIM OLISH FAOLLIGINI
NAMOYON QILISH UCHUN SHAROIT YARATISH.**

Eshnayev Iskandar Azizovich

Osiyo xalqaro universiteti pedagogika, psixologiya yunalishi magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'rta ta'lim maktablarda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish qo'shimcha ta'lim va tarbiya doirasidagi rivojlanish faoliyatining asosini tashkil qiladi, bolaning har tomonlama rivojlanishi va o'zini o'zi rivojlantirishi uchun shart-sharoitlarni yaratishga, pedagogic texnologiyalardan foydalanishni tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, pedagogik texnologiya, jarayoniy-amaliy, jarayoniy-tavsifiy, ilmiy, metodologiya, kompetensiya, didaktik, integratsiya, konseptual.

Bugun dunyoda yuz berayotgan jadal suratdagi ilmiy texnologikozgarishlarni harakatga keltiruvchi kuch - kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish. bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun kunda ko'plab o'qituvchilar tomonidan interfaol metodlar, innovasion pedagogik va axborot texnologiyalar dars jarayonlarida bevosita qo'llanmoqda. Bu orqali o'qituvchi dars jarayonida kamroq energiya sarflab, ko'proq ma'lumot berish orqali samaradorlikka erishadi hamda o'quvchilar ko'zlari bilan ko'rishlari orqali ma'lumotlarni uzoq vaqt davomida xotiralarida saqlab qoladilar.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidagi originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, birnuqtaga turli yo'nalishdan yondashishni anglatadi.



Bolani ijodkor shaxsga aylantirish pedagogik jarayon texnologiyasiga bog'liq. Axborot reproduktiv o'quv jarayonida muammo-ijodiy va ijodiy o'zgarishlar. Fikrlash rivojlanish jarayonlarini faollashtirish va tezlashtirish bo'yicha oslashtirilgan "Tezyutsion davolash muolajasi" pedagogika sohasida keng tarqaldi.

Maqsadga erishish **vositalari**:

- o'quvchilarning subyektiv tajribalarini aniqlashga imkon beradigan o'quv faoliyatining turli shakllari va usullaridan foydalanish;
- mashg'ulot jarayonida butun sinfning faolligini oshirish uchun muhit yaratish;
- o'quvchilarning o'z fikrini bildirishga, xato qilishga yoki noto'g'ri javob olishga cho'chimasdan topshiriqlarni bajarishda turli usullardan foydalanish;
- o'quvchi faoliyatini faqatgina natijaga qarab emas (*to'g'ri, noto'g'ri*) balki ushbu natijaga erishish jarayoniga qarab baholash;
- o'quvchi qanday usulda ishlashni (*masalani yechimini topish*) o'zi tanlashiga sharoit yaratish, mashg'ulot davomida boshqa o'quvchilarning ish usullarini tahlil qilish, eng qulay usullarni tanlash, o'zlashtirish;
- o'quvchiga tazyiq o'tkazmaslik hamda kamchiligini bo'rttirmaslik;
- past o'zlashtirish, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni o'quvchining shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;
- mashg'ulot jarayonida muvaffaqiyat muhitini yaratish, o'quvchiga o'qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirishdan iboratdir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi quyidagicha tavsiflanadi:

- nomarkazlashganlik (antroposentrik);
- insonparvarlik;
- psixoterapevtik yo'nalganligi;
- bolaning erkin, ijodiy va har tomonlama rivojlanishini asosiy maqsad qilib qo'yishi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya texnologiyasidagi fundamental g'oya tushuntirishdan tushunishga, monologdan dialogga, nazoratdan rivojlanishga,



boshqarishdan o‘zini-o‘zi boshqarishga o‘tishdan iborat. **Pedagog** asosiy urg‘uni fanni bilishga emas, aksincha, muloqotga o‘zaro bir-birini **tushunishga** harakat qilib, o‘quvchini, **ijod qilishi uchun, uni ozod qilishga** qaratishi kerak. **Ijod va izlanish o‘quvchining** shaxsga yo‘naltirilgan **ta’lim texnologiyasi muhitidagi borlig‘ining** asosi bo‘lmog‘i lozim. Ammo o‘quvchining jismoniy, intellektual va ruhiy holati mustaqil ravishda ta’limdagi ijodiy izlanish talab qiladigan topshiriqlarni bajarishga va hayotiy muammolarni yechishga yetarli emas. Shuning uchun unga pedagogik qo‘llab-quvvatlash va yordam kerak bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya texnologiyasining tavsifidagi mana shular kalit (tayanch) so‘zlardir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya texnologiyasi o‘z ichiga quyidagilarni ham qamrab oladi:

- shaxsga insonparvarlik yondashuvi;
- hamkorlik texnologiyasi;
- o‘yin texnologiyasi;
- kommunikativ ta’lim texnologiyasi;
- erkin tarbiya texnologiyasi;
- bolani qo‘llab-quvvatlash texnologiyasi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan talablar

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya texnologiyasi bo‘yicha mashg‘ulotlar tizimini yaratish orqali pedagoglarning metodik ta’limi maqsadlari, mashg‘ulot materialining mazmuni, rahbar va pedagoglar munosabatining shakllari ta’limning bosh mazmuniga xizmat qiladigan, ya’ni, pedagogni metodik jarayonning faol subyektiga aylantiradigan qilib tashkil etiladi. Bu subyekt maqsadlarini belgilashda, mazmunini yaratishda ishti- rok etadi. Insonparvarlik motivi asosida shaxsning shunday sifatlari dolzarb bo‘ladiki, unga muvofiq **qiziqish, his-hayajon, shaxsni rivojlantirishga qaratilgan yondashuv** imkoni yaratiladi; **ya’ni tarbiyalanuvchi va pedagogga noyob shaxs sifatida munosabat bildirish kabi**. Shu bilan birga, metodik faoliyatda pedagogning o‘zini ko‘rsata bilishi, o‘z manfaatini, refleksiyasini, shaxsiy



pedagogik holatini individual–mualliflik–pedagogik (*metodik va didaktik*) tizimni yaratishi kuchayib boradi. Bunda quyidagilar e'tiborga olinadi:

- dialog (o'zaro suhbat);
- faollik va ijodkorlik;
- bolaning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
- o'quvchiga mustaqil ijod qilishi, qaror qabul qilishi, ta'lim olish turi va

uslublarini tanlashi uchun keng imkoniyat yaratib berish.

Pedagog quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- san'at, ijodkorlik va bolaga hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- insoniy, pedagogik pozitsiyada bo'lish;
- psixologik muvozanati barqaror va ziddiyatlarga bardoshli bo'lishi;
- bolalarning ruhiy va jismoniy sog'lom bo'lishi va bolalik ekologiyasi

haqida qayg'u-rishi;

- doimiy ravishda madaniy-informatsion, rivojlantiruvchi yangiliklardan unumli foydalanib ta'lim jarayonini boyitib borishi;
- ta'lim mazmuni bilan ishlashni bilishi va uni shaxsga yo'naltirishi;
- har bir bolaning individual xususiyatlarini qo'llab-quvvatlashi va ularni rivojlantirish haqida qayg'urishi.

Xulosa qiladigan bo'lsak o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'rsatkichlari ularning tadqiqotchilik qobiliyatlariga qanday bog'liq ekanligini tahlil etish ham o'rinlidir. Xuddi o'quvchi ishtiyoqini o'lchaydigan uslub kabi, uning tadqiqotchilik qobiliyatini ham kompyuterlashgan testdagi xatti-harakatini kuzatishdan olingan (telemetriya) ma'lumotlar asosida tahlil qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G.Karimova, M.Z.Shaxobiddinova, X.Sh.Nurmatova. O'zbekiston respublikasi prezident ta'lim muassasalari agentligi. //Tarbiyachi-pedagoglar va sinf rahbarlar uchun o'quv qullanma//.2022 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. – Toshkent: "Ma'rifat-Madadkor", 2000.– 7-b.



3. Одилов Ё.Ж. [Informatsionno-kommunikatsionniye texnologii \(ikt\) v obrazovanii. Ikt kompetentnost v professionalnom razvitii kadrov](#) // Scienceweb academic papers collection. ISSUE 9. ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor. – Тошкент, 2019/1/1. 436-441.
4. Одилов Ё.Ж. // [Methods of preparing students for professional activity on the basis of teaching physics](#) // O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari. 2022,[1/11] ISSN 2181-7324.
5. **Tursunov.I. G, Odilov Y.J // Fizikadan laboratoriya ishini bajarishda yangi va noan’anaviy uslublardan foydalanish.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. 2021/10.**
6. Одилов.Ё.Ж. //Янги ва ноанъанавий услублардан фойдаланиб физика фанидан лаборатория ишhini бажариши усуллари// **ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI. 2024/7/11. 77-80 Б.**
7. **Odilov.Yo.J //Issiqlik uzatish jarayoni matematik modelini microsoft excel dasturida o’rganish. // Engineering problems and innovations. 2023**